

## X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI <sup>-)</sup>

**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan foyda solig'i to'lagunga qadar foyda 717,0 mlrd so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari (2023- yilning yanvar-may oylarida)

	<i>Foyda, zarar (-), mln so'm</i>	<i>2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan % da</i>
<b>Jami</b>	<b>717 007,0</b>	<b>51,3</b>
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	-3 579,9	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	692 632,0	49,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	795,9	99,7
Suv bilan ta'minlash	425,1	-
Qurilish	-396,9	-
Ulgurji va chakana savdo: motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	9 446,7	89,2
Tashish va saqlash	-1 644,9	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	57,5	117,6
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	364,7	46,8
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	9 268,1	182,5
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	33,6	96,8
Ta'lim	9 588,3	12,3 m.
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16,8	77,4
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	-	-

**Hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**  
(2023- yilning yanvar-may oylarida)


	<i>Foyda, zarar (-), mln so‘m</i>	<i>2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan % da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>717 007,0</b>	<b>51,3</b>
<i>shaharlar</i>		
Andijon	44 723,6	-
Xonobod	8 287,4	2,3 m.
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	1 895,0	79,8
Asaka	664 226,1	47,7
Baliqchi	489,7	50,0
Bo‘ston	257,4	29,0
Buloqboshi	2 901,4	100,6
Jalaquduq	1 059,8	2,4 m.
Izboskan	0,9	6,7
Ulug‘nor	2 644,5	117,9
Marhamat	-14739,5	-
Oltinko‘l	6 897,8	112,2
Paxtaobod	2 222,4	85,7
Xo‘jaobod	410,8	9,8
Shahrixon	-4 477,9	-
Qo‘rg‘ontepa	207,7	3,2

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Asaka tumani 664 226,1 mln so‘m, Andijon shahar 44 723,6 mln so‘m va Xonobod shahar 8 287,4 mln so‘mga to‘g‘ri keladi.

**Zararlar.** 2023- yilning yanvar-may oylarida 16 ta korxonalar va tashkilotlar 67 369,7 mln so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati 103,7 mln so‘m (0,2 %), “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati 2 466,0 mln so‘m (3,7 %), “O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini uyushmasi 32 430,0 mln so‘m (48,1 %), “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joh kommunal xo‘jaligi vazirligi” 272,8 mln so‘m (0,4 %), “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi 812,5 mln so‘m (1,2 %), va yuqoridagi vazirlik va korxonalar tarkibiga kirmagan korxonalar 31 284,7 mln so‘m (46,4 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.


**Zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**  
(2023- yilning yanvar-may, jamiga nisbatan % da)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**  
(2023- yilning yanvar-may)

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>Zarar summasi mln so'm</i>
<b>Jami</b>	<b>16</b>	<b>100</b>	<b>67 369,7</b>
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1	5,4	3642
Ishlab chiqaradigan sanoat	8	87,7	59 067,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1	0,4	272,7
Qurilish	2	0,9	604,2
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	3	2,0	1 317,5
Tashish va saqlash	1	3,6	2 466
Ta'lim	-	-	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	-	-	-

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**  
(2023- yilning yanvar-may oylari, jamiga nisbatan % da)



Zararlarning asosiy qismi Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 3 642 mln so'm (5,4 %), Ishlab chiqaradigan sanoat 59 067,3 mln so'm (jami zararining 87,7 %), Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash 1 317,5 mln so'm (2,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 272,7 mln so'm (0,4 %), tashish va saqlash 2 466 mln so'm (3,6 %), Qurilish 604,2 mln so'm (0,9 %)ni tashkil qiladi.

**Hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**  
(2023- yil yanvar-may oylarida)

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>Zarar summasi, mln so‘m</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>16</b>	<b>100,0</b>	<b>67 369,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	11	68,7	46 287,2
Xonobod	-	-	-
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	1	0,1	85,4
Asaka	1	1,2	812,5
Baliqchi	-	-	-
Bo‘ston	-	-	-
Buloqboshi	-	-	-
Jalaquduq	-	-	-
Izboskan	-	-	-
Ulug‘nor	1	0,1	38,1
Marhamat	1	23,1	15 593,0
Oltinko‘l	-	-	-
Paxtaobod	-	-	-
Xo‘jaobod	-	-	-
Shahrixon	1	6,8	4 553,5
Qo‘rg‘ontepa	-	-	-

**Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati<sup>1)</sup>**

2023- yil 1- iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 16 855,0 mlrd so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 109,6 mlrd so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,7 foizini tashkil etdi.


Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2022- yilning 1- iyun holatiga nisbatan solishtirganimizda 1,4 marta ko‘paygan, jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 32 mlrd so‘mga ko‘paygan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**  
(2023- yil 1- iyun holatiga)

	Jami, mln so'm	undan:			Muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, % da
		xaridor va buyurtmachilar	yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	ichki idoraviy	


<b>Jami iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</b>	<b>109 630,3</b>	<b>29 595,4</b>	<b>24 368,2</b>	<b>1 062,9</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	99 282,8	19 247,9	24 368,2	1 062,9	90,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2 304,6	2 304,6	-	-	2,1
Suv bilan ta'minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	5 358,7	5 358,7	-	-	4,9
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	2 684,2	2 684,2	-	-	2,4

**Vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi**  
(2023- yil 1- iyun holatiga, jamiga nisbatan % da)



Vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligidagi yuqori ulush “O‘zavtosanoat” AJ (88,7 %)ni va O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalar uyushmasi (5,4 %)ni va boshqalar (5,9 %)ni tashkil qildi.

**Vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi**  
(2023- yil 1- iyun holatiga, jamiga nisbatan % da)



2023- yil 1- iyun holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligidagi yuqori ulush “O‘zavtosanoat” AJ (90,1 %) va “O‘zcharmsanoat” uyushmasi (0,6 %) va boshqalar (9,3 %) tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**  
(2023- yil 1- iyun holatiga)

	Jami, mln so‘m	undan:				Muddati o‘tgan qarzdorlikning ulushi, % da
		yetkazib beruvchilar va pudrat-chilarga	byudjetga to‘lovlar	davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar	ichki idoraviy	
<b>Jami</b>	<b>46 981,3</b>	<b>32 502,1</b>	<b>2 180,6</b>	<b>1 608,2</b>	<b>10 112,6</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	41 951,6	31 091,5	681,6	-	10 112,6	89,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	5 028,8	1 410,6	1 499,0	1 608,2	-	10,7
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	0,9	-	-	-	-	-

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar)** – korxonalar va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

**Debitorlik qarzlari** – xaridorlar va buyurtmachilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, budjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

**Kreditorlik qarzlari** – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urta bo'yicha qarz, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischi qarzlar, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

**Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar)** – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.

**Muddati o'tgan qarzlari** – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzning umumiy summasi.